

## O‘ZBEK ADABIYOTI VA BADIY TIL VOSITALARI

*Mualliflar: Toshkent Farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Djalgasova Asalxon Azat qizi***

*Toshkent Farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Abdujalilova Nafosat Umidjon qizi***

*Toshkent Farmatsevtika instituti Sanoat Farmatsiyasi fakulteti Sanoat farmatsiyasi yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***G'ulomova Muslima Zarifjon qizi***

*Ilmiy rahbar: Toshkent farmatsevtika insituti Tibbiy, biologik fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi mudiri, dotsent Nuraliyeva Xafiza Otayevna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti va badiiy til vositalarining o‘rni, ahamiyati lingvistik hamda adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Badiiy til vositalari adabiy asarning estetik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ular orqali muallifning individual uslubi, badiiy tafakkuri hamda milliy dunyoqarashi ifodalanadi. Maqolada o‘zbek adabiyoti namunalarida uchraydigan metafora, tashbeh, epitet, jonlantirish, mubolag‘a, frazeologik birliklar kabi badiiy ifoda vositalarining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, badiiy til vositalarining adabiy matn mazmunini boyitish, obrazlar tizimini shakllantirish va o‘quvchi tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishdagi roli ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida klassik va zamonaviy o‘zbek adabiyoti asarlaridan olingan misollar asosida badiiy til vositalarining funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada til va adabiyotning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, badiiy til vositalari orqali milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarning aks etishi masalalariga ham alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotida badiiy til vositalarining nafaqat estetik, balki kommunikativ va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

**Kirish:** O‘zbek adabiyoti badiiy til vositalariga nihoyatda boy bo‘lib, ular asar mazmunini ta’sirchan va obrazli ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tashbeh, metafora, epitet, mubolag‘a kabi vositalar orqali yozuvchi o‘z g‘oyasini o‘quvchiga yanada chuqurroq yetkazadi, asarning estetik qiymatini oshiradi. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida qo‘llaniladigan badiiy til vositalarining ahamiyati va ularning adabiy asarlardagi o‘rni yoritiladi.

O‘zbek xalqi qadimiy va boy madaniyatga ega bo‘lgan xalqlardan biridir. U jahon ilm-fani, san’ati va adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi, buyuk olimlarni,

san'atkorlarni va yozuvchilarni yetishtirdi, boshqa xalqlar bilan yaqindan madaniy aloqada boldi. O'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o'zbek adabiyotidir. O'zbek adabiyoti tarixi o'zbek xalqining qadim zamonlardan boshlab hozirgi kunga qadar yaratgan badiiy adabiyotini o'z ichiga oladi. Bu adabiyot bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki davrga: Ulug' Oktabr sotsialistik revolyutsiyasigacha bo'lgan davr va Oktabr revolyutsiyasidan keyingi davrga bo'linadi. Oktabr revolyutsiyasigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti antogonistik sinfiy jamiyatda vujudga kelgan, antagonistik sinfiy jamiyatning ziddiyatlari bilan birga yashagan adabiyotdir. Bu adabiyot bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan oqimlardan, reaksiyon va progressiv oqimlardan – ekspluatatorlar manfaatiga yoki xalq ommasi manfaatlariga xizmat qilgan oqimlardan iboratdir. O'zbek adabiyoti tarixi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan adabiy oqimlarning kurashi tarixidir. Bu kurashda progressiv adabiyot o'sdi, chiniqdi va tobora keng xalq ommasi bilan bog'lanib, uning e'tibori va muhabbatiga sazovor bo'ldi. O'zbek adabiyoti turli xil va janrdagi badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Lirik va epos o'tmish o'zbek adabiyotining asosiy xillaridir. G'azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, masal, hikoya va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlardir. O'zbek adabiyoti tarixi turli adabiy xil va janrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamdir. O'tmish o'zbek adabiyoti bir qator memuar va tarixiy asarlarni ham o'z ichiga oladi. "Boburnoma" (Bobur), "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima" (Abulg'oziy), "Firdavs-ul iqbol" (Munis va Ogahiy) va boshqalar shular jumlasidandir, chunki ularda tarixiy voqealar ko'pincha badiiy til vositasida ifodalanadi, badiiy lavhalar va she'rlar ularga yanada ko'proq badiiy tus beradi.

**Asosiy qism:** O'zbek adabiyotida badiiy til vositalari yozuvchining badiiy mahoratini namoyon etuvchi asosiy omillardan biridir. Ular orqali asarda tasvirning jonliligi, obrazlarning aniqligi va fikrning ta'sirchanligi ta'minlanadi. Badiiy til vositalari yordamida voqea-hodisalar oddiy axborot tarzida emas, balki estetik zavq uyg'otadigan shaklda ifodalanadi. Tashbeh va metaforalar o'zbek adabiyotida eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan bo'lib, ular orqali inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik obrazli tarzda ochib beriladi. Metafora asarda yashirin ma'no hosil qilib, o'quvchini mushohadaga chorlaydi. Tashbeh esa qiyoslash asosida tasvirni aniq va tushunarli qiladi. Efitetlar badiiy nutqqa rang-baranglik va ifodaviylik baxsh etadi. Ular yordamida qahramonlarning tashqi ko'rinishi, ruhiy holati hamda atrof-muhit manzaralari yorqin tasvirlanadi. Mubolag'a esa voqealar va his-tuyg'ularni kuchaytirib ko'rsatish orqali asarning emotsional ta'sirini oshiradi.

Shuningdek, jonlantirish, takror va kinoya kabi badiiy vositalar ham o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Jonlantirish orqali tabiat hodisalari insoniy xususiyatlar bilan tasvirlanib, asarga hayotiylik beriladi. Kinoya esa muallifning tanqidiy munosabatini nozik va ta'sirli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Bu

vositalarning barchasi badiiy asarning mazmuni va g'oyasini chuqurroq ochishga yordam beradi.

O'zbek xalqi asrlar davomida bir qancha xalqlar bilan, O'rta Osiyo va Qozog'iston, Kavkaz va Rosiia, Gretsiya va Eron, Hindiston va Arabiston hamda boshqa o'lkalarning xalqlari bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'ldi. Natijada ana shu aloqalarning mevasi sifatida tarjima adabiyoti vujudga keldi. O'zbek tiliga tojik, eron, ozarbayjon, hind, arab, rus va boshqa xalqlarning ko'p badiiy asarlari va tarix kitoblari tarjima qilindi. "Xusrav va Shirin", "Haft paykar" (Nizomiy), "Guliston", "Bo'ston" (Sa'diy), "Bahoriston", "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Absol" (Jomiy), "Shoh va gado" (Hiloliy), "Kalila va Dimna" (aslida hind eposi), "Ming bir kecha" (arab ertaklari), "Ravzatus-safo" (Mirxond) va boshqalar shular jumlasidandir. Tarjima adabiyoti xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi, o'zbek xalqini boshqa xalqlarning badiiy ijodi bilan tanishtiradi. Shu bilan birga, tarjima asarlarning ko'pi tarixiy sharoitning ehtiyoji, talabi hamda o'zbek yozma adabiyoti va xalq og'zaki ijodi tajribalari asosida birmuncha o'zgartirilgan va yangiliklar kiritilgan, ijodiy qayta ishlangan asarlardir. Qutb (XIV asr) tarjima qilgan "Xusrav va Shirin" (Nizomiy), Xiromiy (XIX asr) tarjima qilgan "Chor darvesh", "To'tinoma" va boshqalar shu xildagi erkin tarjima asarlaridir.

O'zbek adabiyotida badiiy til vositalari har bir adabiy davrda o'ziga xos shakl va mazmun kasb etgan. Xususan, jadid adabiyoti vakillari badiiy til imkoniyatlaridan samarali foydalanib, adabiyot orqali jamiyatni uyg'otish va ma'rifat tarqatishni asosiy maqsad qilib qo'yganlar. Ular asarlarida badiiylik bilan birga ijtimoiy mazmunning uyg'unligini ta'minlashga intilganlar. Jadid adabiyotida tashbeh va metaforalar ko'pincha zulmat va jaholatni fosh etish, ilm va taraqqiyotni ulug'lash uchun xizmat qilgan. Masalan, zulmat, zanjir, uyqu kabi obrazlar eskilik ramzi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, nur, tong, uyg'onish kabi metaforalar yangilanish va ma'rifat timsoli bo'lib namoyon bo'ladi. Bu vositalar orqali jadid yozuvchilari o'z g'oyalarini o'quvchiga ta'sirchan tarzda yetkazganlar. Epitetlar jadid asarlarida jamiyatning holatini ochib berishda muhim rol o'ynagan. "Qorong'i jaholat", "uyg'oq tafakkur", "achchiq haqiqat" kabi ifodalar badiiy tasvir bilan birga chuqur ma'noni ham ifodalaydi. Mubolag'a esa xalqning savodsizligi yoki mustabid tuzumning adolatsizligini keskinroq ko'rsatish uchun ishlatilgan.

Shuningdek, kinoya va jonlantirish jadid adabiyotida keng qo'llanilgan badiiy vositalardan hisoblanadi. Kinoya orqali jamiyatdagi illatlar tanqid qilingan, jonlantirish orqali esa Vatan, til va xalq obrazlari tirik va ta'sirli shaklda tasvirlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadid adiblarning asarlarida bu badiiy til vositalari adabiy va ma'rifiy maqsadlarga xizmat qilgan.

Natijada, jadid adabiyoti o‘zbek badiiy tilining rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, unda qo‘llangan badiiy til vositalari nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

XX asr o‘zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida o‘ziga xos bosqich sanaladi. Bu davrda o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘lida realistik tasvir tamoyili yetakchilik qildi, badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga yaqinlashdi, qalamga olingan mavzular zamon bilan, mavjud umuminsoniy muammolar bilan bog‘landi. Mustaqillik davri milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Istiqloq davri o‘zbek adabiyoti tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o‘laroq tug‘ildi. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo‘sinlarini, muayyan shaxs ruhiyati manzaralarini sinfiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz ham tasvirlash natijasi bo‘lib yaratildi. Mustaqil o‘zbek davlati badiiy adabiyotni sho‘ro zamonida bo‘lgani kabi o‘z monopoliyasiga aylantirishga urinmadi. Shu bois ijod erkinligiga ob‘yektiv sharoit yaratildi. Adabiyot ijodkorning ko‘ngil ishiga aylandi va aylanmoqda. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko‘rsatish, siyosiy tizimlarni takomillashtirishga emas, alohida inson shaxsining ma’naviyatini mukammallashtirishga yo‘naltirildi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyoti badiiy til vositalariga nihoyatda boy bo‘lib, ular asarning mazmuni va g‘oyasini chuqur hamda ta’sirchan ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy til vositalari orqali yozuvchi voqelikni faqat tasvirlabgina qolmay, balki o‘quvchining ongiga, hissiyotiga va tafakkuriga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois badiiylik adabiy asarning ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday qilib, badiiy til vositalari nafaqat adabiy asarning mazmunini boyitadi, balki o‘zbek adabiyotining rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Ular adabiyotning estetik, ma’rifiy va ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirib, milliy til va madaniyatning boyligini aks ettiradi. Shu bois, o‘zbek adabiyoti va badiiy til vositalarini o‘rganish adabiy merosimizni chuqur anglash va uning qadriyatini kelajak avlodga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek adabiyoti - Vikipediya
2. O‘zbek adabiyoti tarixi - Milliylik-millat ko'zgusi
3. Mustaqillik davri adabiyoti haqida